



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2024

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00-TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy hodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00-FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'rroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxkarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00-YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliv kengashi huzuridagi Sudyalar oliv maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich - yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pyedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00-SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00-SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning
dolzARB muammolari**” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga
olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Turg'unov Sherzod Abduvositovich</i>	
FARG'ONA VILOYATI SANOAT KORXONALARINING MODDIY-TEXNIK HOLATI VA ULARNING SANOAT ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI HAQIDA AYRIM FIKR MULOHAZALAR (Farg'ona viloyatida 1950-1970-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)	13-19
<i>Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li</i>	
SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN ATEISTIK SIYOSATI VA XUDOSIZLAR JAMIYATI FAOLIYATI	20-23
<i>Berdiyev Abduvali Abdug'aniyevich</i>	
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IJTIMOIY ALOQALARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR	24-32
<i>Сойиб Раупов</i>	
KAMBAFAALLIK VA UNI ҚИСҚАРТИРИШ MUAMMOLARI	33-42
<i>Abdimo'minov Oybek Bektemirovich</i>	
MARKAZIY OSIYO MINTAQASIGA ILMIY QARASHLAR VA KONSEPTUAL MASALALARNING AYRIM JIHATLARI	43-48
<i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o'g'li</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI BOZORLARI VA KARVONSAROYLARI TARIXI	49-53
<i>Temirova Munira</i>	
ESKI TERMIZ SIMOBKO'ZACHALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	54-58
<i>Sattorova Shahlo</i>	
SHAYBONIYLAR DAVRIDA JO'YBOR XO'JALARINING BUNYODKORLIK FAOLIYATI	59-63

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Yazdonova Saxiba Kurbanovna</i>	
KIBERMAKON: TA'LIM, TARBIYA VA IQTISODIY TA'SIR TENDENSIYALARI	64-72
<i>Таниев Аҳмаджон Баҳромовиҷ</i>	
ТУРИЗМ, ГЛОБАЛЛАШУВ ВА САВДО: УЛАРНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ТАЪСИРИ	73-82
<i>Ходжсаниязов Элбек Сардорович</i>	
ХОРАЗМ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	83-93
<i>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Ibrohimova Maqsuda Muhammadjon qizi</i>	
O'ZBEK SANOATINING INNOVATSION TARAQQIYOTI VA IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	94-99
<i>Ahmedov Adham Djalolovich</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH	100-105
<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	
QURILISH KORXONALARI DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	106-112

<i>Abdurahmanov Muxtora</i> ХУДУДИЙ КЛАСТЕРНИ ШАКЛАНТИРИШ БОСҚИЧЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	113-116
<i>Poshokulova Mohigul</i> BILIMLAR IQTISODIYOTINING ZAMONAVIY SHAKLLARI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA	117-122
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH: YANGI IMKONIYATLAR VA TAHDIDLAR	123-131
<i>Sayfutdinova Nigina Furkatovna</i> O'ZBEKİSTONDA INNOVATSIYALARНИ RIVOJLANTIRISH ASOSIY AHAMIYATLARI	132-135
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Shakarov Oybek Xudoyberdi o'g'li</i> O'ZBEK XALQI ETOSFERASIDA KORRUPSION MUNOSABATLAR PAYDO BO'LISH SABABLARINING FALSAFIY TAHLILI	136-139
<i>Жўрамуродов Нодир Гайбуллаевич</i> ЖАДИДЛАР ФАЛСАФАСИДА МИЛЛИЙ ФОЯ, МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ВА МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	140-144
<i>Sayidova Muhabbat G'afforovna</i> GLOBAL AXBOROTLASHUV TENDENSIYALARINING MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI	145-149
<i>Kuraxmedov Azamat Erkinovich</i> SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK FALSAFASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	150-153
<i>Umarova Feruza Rozibayevna</i> O'ZBEK XALQI MA'NAVIY MADANIYATI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	154-156
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i> KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI	157-161
<i>Begbudieva Parvina Shoxruxovna</i> THE CONTRIBUTION OF MAHMUDHODJA BEHBUDI TO THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM OF TURKESTAN	162-166
<i>Aytbayev Mansurbek Yusupovich</i> МАHMUD AZ-ZAMAXSHARIY AQZ-ZAKOVAT TO'G'RISIDA	167-173
<i>Muslimov Sherzod Akbarovich</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MA'NAVIY MEROSI: JAMIYAT, SIYOSAT VA SHE'RIYAT	174-178
<i>Jantayev Maqsud Ibragimovich</i> MUHAMMAD AL-XORAZMIY: MATEMATIKADAN FALSAFAGACHA BO'LGAN ILMIY IZLANISHLAR	179-184
<i>Norova Malika Fayzulloyevna</i> TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING SAYFIDDIN BOXARZIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI	185-191

<i>Gulova Anorgul Axtamovna</i>	
O'ZBEKISTONDA ALISHER NAVOIY ASARLARIKA BO'LGAN MUNOSABAT	192-196
<i>Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich, Karimova Gulchehra Abdukarimovna</i>	
BURCH VA MAS'ULIYAT TUSHUNCHALARINING TARIXIY-NAZARIY, AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TALQINI	197-205
<i>Berdikulov Chingiz Dusmuradovich</i>	
IJTIMOIY MULOQOT-SHAXS INTELLEKTUAL MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILI	206-211
<i>Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich</i>	
MILLIY-MA'NAVIY YUKSALISH – MAMLAKATIMIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINING YANGI STRATEGIYASI SIFATIDA	212-216
<i>Nurmatov Kamaridin Shamsiyevich</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING O'RNI	217-221
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i>	
JAMIyat TARAQQIYOTIDA SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGINI TA'MINLASHNING DIALEKTIK TAHLILI	222-228
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Бердиева Мукаррама Анваровна, Чернова Наталья Васильевна</i>	
СТРАТЕГИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО ПОДХОДА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ	229-234
<i>Жамаҳматов Каромиддин Айнилло ўғли</i>	
БУРХОНИДДИН ТЕРМИЗИЙ АСАРЛАРИНИНГ САЛЖУҚИЙЛАР ДАВРИДА ЯРАТИЛГАН ТАСАВВУФИЙ МАНБАЛАРГА ТАЪСИРИ	235-243
<i>Temirova Aziza Muzaffarovna, Uralova Oysuluv Poyan qizi</i>	
ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "КО'К" SIFAT BELGISINING SEMANTIK XUSUSIYATLARINING TADQIQI	244-247
<i>Mansurova Mohinur Akmal qizi</i>	
HAJVIY TAFAKKUR TABIATI – SATIRA VA YUMOR TUSHUNCHASI	248-252
<i>Яркулова Фотима Усмановна, Исломова Марьям</i>	
ИМЕННОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ В ПОВЕСТЯХ И.С.ТУРГЕНОВА	253-257
<i>Murodova Muqadas Ikromovna</i>	
XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA YARATILGAN SATIRIK ASARLAR TADQIQI	258-263
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
O'ZBEK ADABIYOTIDA LATIFA JANRI TARAQQIYOTI VA TAHLLILI	264-268
<i>Davronov Shekroz Abrorovich</i>	
OG'ZAKI TARJIMA VA UNDA KOMPRESSIYANING ROLI	269-273
<i>Begmatov Azizbek Tursunbayevich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLER TADQIQI	274-280
<i>Ibragimova Moxiraxon Anvarovna</i>	
NUTQIY AKTLAR TASNIFI	281-285
<i>Расулова Истода Абдулатифовна</i>	
К ПРОБЛЕМЕ ДЕФИНИЦИИ ЯЗЫКОВЫХ УНИВЕРСАЛИЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВАРИАНТНЫХ СВОЙСТВ В КОНТЕКСТЕ ЯЗЫКОВОЙ ВАРИАТИВНОСТИ	286-293

<i>Obidova Go'zalxon Ma'rufjon qizi</i>	
O'ZBEK TILIDA OMAD VA OMADSIZLIKNI NOMLOVCHI LEKSIK VA FRAZEOLOGIK BIRLIKAR	294-299
<i>Furkatova Maxliyo To'lqin qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SHAXS-SON KATEGORIYASI	300-309
<i>Baxramov Xabibillo Sadikovich</i>	
INGLIZ TILIDA "POISON-ZAHAR" KONSEPTINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	310-315
<i>Tухтаев Сирожиддин Тошпўлатович</i>	
ПАРЕМИОЛОГИЯДА САХИЙЛИК КОНЦЕПТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	316-323
<i>Qiyomov Shohabbosxon Sharofiddin o'g'li</i>	
XATTOTLIK SAN'ATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	324-327
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i>	
YOLG'IZLIK FENOMENINING PSIXOLOGIK, IJTIMOIY VA EKZISTENSIAL ASPEKTLARI	328-331
<i>Qayumova Mohinur Murodullayevna</i>	
LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT «STEP» IN THE ENGLISH LANGUAGE	332-337
<i>Sayipova Dilafruz Rahimovna</i>	
O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA "BOBURNOMA"NING AHAMIYATI	338-342
<i>Diyarov Akmal To'lqin o'g'li</i>	
INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING GENETIK-ETIMOLOGIK TAVSIFI	343-348
<i>Аманазарова Шохида Бахрамовна</i>	
РЕКЛАМАДА ИЛЛОКУЦИЯ ВА ПЕРЛОКУЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИШИДА БИЛБОРДЛАРНИ АҲАМИЯТИ (РЕКЛАМА БАННЕРЛАРИ МИСОЛИДА)	349-353
<i>Mamadqulova Kamila Abduxoliquovna</i>	
ANCIENT EGYPTIAN LITERATURE: THE OLD, MIDDLE AND NEW KINGDOMS	354-364
<i>Alimova Dilrabo</i>	
SHARQ ADABIYOTIDA QASIDANING TARIXIY TAKOMILI	365-373
<i>Abduqaxxorova Nargiza Rustamovna</i>	
RUS VA O'ZBEK TILLARIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI	374-379
<i>Курбонова Нодира Розиковна, Пулатова Сабина Шарифовна</i>	
ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТЕМЫ УТРАЧЕННОЙ РОДИНЫ В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА»	380-390
<i>Khamidov Tohirjon Olmos ogli</i>	
ANALYSIS OF TYPES OF ENGLISH PHRASAL VERBS ACCORDING TO THE STRUCTURE	391-396
<i>Umurzakova Kommina Xursanovna</i>	
O'ZBEKİSTON İJTİMOİY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQİDAGI O'ZGARISHNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	397-402
<i>Habibullayeva Shoira Shukurillayevna</i>	
ONA TİLİ DARSIDA GAP BO'LAKLARI VA ULARNI TAHLİL QILISH METODİKASI	403-406

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Imomov Nurillo Fayzullayevich</i> ТА’MINLOVCHI TO’LOV – MAJBURIYATLARNI TA’MINLASHNING YANGI USULI SIFATIDA	407-414
<i>Салаев Нодирбек Сапарбаевич</i> ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА ДЕКРИМИНАЛИЗАЦИЯ: МОҲИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	415-431
<i>Ходжиев Юнус Мухитдинович</i> МУЛК ҲУҚУҚИ БЕКОР БЎЛИШИНинг ШАХС ИХТИЁРИГА БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН АСОСЛАРИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ	432-436
<i>Сайдивалиева Хуршида</i> БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАРБИЯГА БЕРИШ ЮЗАСИДАН ВУЖУДГА КЕЛУВЧИ МУНОСАБАТЛАРНИ КЕЛИШУВЛАР АСОСИДА ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ	437-445
<i>Miqutov Bobur</i> THE LEGAL NATURE OF E-COMMERCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	446-451
<i>Raimova Nargiza Doroyevna, To’uchiyeva Bahora Otabekovna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	452-459
<i>Чориева Хуршидабону Хуррам қизи</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	460-468
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i> UNDIRUVNI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA BO’LGAN HUQUQLARGA QARATISHNING AYRIM FUQAROLIK-HUQUQIY MASALALARI	469-478
<i>Kubaeva Ismigul Farxod qizi</i> CHALLENGES OF BLOCKCHAIN TO LAW AND STATE	479-484
<i>Юсупов Ўқтамбай Абсаматович</i> ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯВИЙ ҲУҚУҚБУЗАРЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	485-491
<i>Баходирова Сабина Улугбек кизи</i> РОЛЬ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ КВАЛИФИКАЦИИ УМЫШЛЕННОГО ТЯЖКОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ	492-503
<i>Эгамбердиев Ферузбек Аскаржон угли</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНСТИТУТА ХОДАТАЙСТВ КАК СПОСОБ ЗАЩИТЫ ПРАВ УЧАСТНИКОВ НА ДОСУДЕБНОМ ЭТАПЕ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	504-508
<i>Ibrohimov Behzodbek Bahromjon o’g’li</i> O’ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY HUQUQIY MUNOSABATLAR ASOSI VA AHAMIYATI	509-520
<i>To’uchiyeva Bahora Otabekovna, Raimova Nargiza Doroyevna</i> PREVENTING FALSE AND MANIPULATIVE ADVERTISING IN SOCIAL NETWORKS	521-528

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ibraximov Sanjar Urumbayevich</i> SPORT MASHG'ULOT JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI VA TAMOYILLARI	529-539
<i>Urazkulova Anna Vitalyevna</i> OLIY TA'LIMDA RUS TILI FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING TOPSHIRIQLARINI ILMIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI	540-545
<i>Қаршиева Дилбар Эшулатовна</i> ПЕДАГОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛарни ШАКЛЛАНИШИДА МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТНИНГ ЎРНИ	546-550
<i>Ajiyeva Muxabbat Baxtibayevna</i> KIMYO FANI BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH	551-555
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna</i> O'QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLIL: JARAYON VA FAOLIYATLI YONDASHUV	556-564
<i>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</i> SHIFTING THE FOCUS OF CORPUS LINGUISTICS FROM RESEARCH TO CLASSROOM PRACTICE	565-570
<i>Акрамова Умеда Салиевна</i> ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ С НЕРУССКИМ ЯЗЫКОВЫМ ФОНОМ	571-582
<i>Abdusattarova Zaynab Abdujalil qizi</i> MATEMATIKA FANINI LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QITISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	583-590
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i> SHAXMAT O'YINI ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	591-595
<i>To'xtayev Hasan Tosho'lalovich</i> ZAMONAVIY MAKTAB O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA KOGNITIV- PSIXOLOGIK TO'SIQLARNING TA'SIRI	596-599
<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLAHTIRISH	600-607
<i>Rahimova Dilshoda Baxriddinovna, Turatosheva Sadoqat Raxmatullayevna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH (SOTSILOGIK TAHLIL)	608-615
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир қизи</i> МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МОСЛАШТИРИЛГАН ВИРТУАЛ ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ	616-619
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM SOHASI MUTAXASSISLARDA KASBIY-IJODIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	620-626

<i>Aliyeva Iroda Otabek qizi</i>	
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМГА XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH BO'YICHA MAVJUD TA'LIM TALABLARINING TASNIFI YUZASIDAN TAHLILLAR	627-631
<i>Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li</i>	
О'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING CHOLG'USHUNOSLIKKA OID NAZARIYALARI: ABU NASR FOROBIYNING MUSIQIY TADQIQOTLARI	632-636
<i>Yaxshiboyeva Shahnoza Bahodir qizi</i>	
JAHON AXBOROT RESURSLARI ORQALI TALABALARING TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI	637-642
<i>Салиев Улугбек, Салиева Нигора</i>	
ОБЩЕНИЕ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ В ПРАКТИКЕ	643-648
<i>Маматкулова Угилжон Эшмирза кизи, Абдуллаева Дилбар Алимбаевна</i>	
МЕТОДИЧЕСКАЯ ИНФОРМАЦИОННАЯ ПЛАТФОРМА ДЛЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ПУТИ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ	649-655
<i>Муминова Офтобхон Каримовна</i>	
ИСТОРИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ: ОТ АНТИЧНОСТИ ДО СОВРЕМЕННЫХ ТЕРМИНОВ	656-661
<i>Ахмедова Уктамхон</i>	
РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАНЯТИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ	662-667
<i>Sattarova Markhabo Raxmonkulovna</i>	
TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	668-672
<i>Nuriddinova Robiya Bekjonaliyevna</i>	
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIKA MASHG'ULOTLARINING UZVIYLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	673-678

Received: 30 November 2024

Accepted: 5 December 2024

Published: 15 December 2024

Article / Original Paper

EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE ACTIVITIES OF CITIZENS' SELF-GOVERNMENT BODIES IN PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION

Ahmedov Adham Djalolovich,

Director of training courses for employees of self-government bodies of citizens of Fergana region,
independent researcher

Abstract. At the present stage of socio-economic development, increasing attention is being paid to increasing the level of employment and reducing poverty. When solving this urgent issue on a scientific basis, it is possible to determine effective ways and means of more effective use of the capabilities of the national social institute "mahalla". This article describes the theoretical and practical aspects of the application of modern approaches and mechanisms for ensuring the vital activity of the population of the territory by increasing their employment through the organization and management of effective activities of citizens' self-government bodies.

Keywords: neighborhood institution, civil self-government, employment, unemployment, poverty reduction, economic and financial levers.

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Ahmedov Adham Djalolovich

Farg'onasi viloyati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari
xodimlari malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari direktori,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida aholining bandlik darajasini oshirish va kambag'allikni qisqartirishga bo'lgan e'tibor borgan sari ortib bormoqda. Bu dolzARB masalani ilmiy asosda hal etishda o'ziga milliy "mahalla" ijtimoiy instituti imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishning ta'sirchan yo'llari va vositalarini aniqlash mumkin. Mazkur maqolada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining samarali faoliyatini tashkil etish va boshqarish yordamida hudud aholisining turmush farovonligini ularning bandlik darajasini oshirish orqali ta'minlashning zamонавиy yondashuvlari va mexanizmlarini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mahalla instituti, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, aholi bandligi, ishsizlik, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy va moliyaviy dastaklar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I12Y2024N13>

Kirish. Aholi bandligi — davlat va jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida, aholini ish joyi va bir vaqtning o'zida insonni shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq, qonunchilikka zid bo'limgan, qoida tariqasida ularga daromad olib keladigan faoliyatidir.

Aholi bandligini ta'minlashda sohaga mas'ul davlat idoralari bilan bir qatorda nodavlat sektor vakillari ham bevosita yoki bilvosita ishtirok etishadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z hududidagi aholining doimiy daromad manbai, ish o'rni va kasbga ega bo'lishidan birinchi navbatda manfaatdor organ hisoblanadi.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlarini tashkil etishga haqli ekan belgilab qo'yildi. Xususan, qonunning 17-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida maslahat markazlari tashkil etishga haqli ekanligi belgilangan.

Mamlakatimizda fuqarolarni bandligini ta'minlash masalalari "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuni, ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish, ularni bandligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdag'i "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 183-sonli qarorlariga asosan tartibga solinadi.

Aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini yanada yaxshilash, oila daromadlarini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik, chorvachilik, parrandachilik, dehqonchilik, shaxsiy tomorqa xo'jaligi bilan shug'ullanish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish bevosita mahallarda amalgalashishini hisobga olib, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish faoliyatini yanada samarali tashkil etilishi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aholi bandligi va ishsizlikni ilmiy asosda tadqiq etishning nazariy asoslari dastlab A. Smit, D. Rikardo, T. Maltus kabi klassik maktab vakillari asarlarida bayon etilgan bo'lib, keyinchalik uning ayrim institutsional jihatlari namoyandalari T. Veblen, J. Danlop, J. Gelbreyt, L. Ulman kabilarning qarashlarida o'z aksini topgan [13]. Mehnat va aholi bandligining iqtisodiy asoslari yuzasidan Yu. G. Odegov, G. G. Rudenko kabi rus olimlarining qarashlarida mehnat bozori va uni muvozanatini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlar keng yoritilgan [9]. O'zbekistonlik iqtisodchilar akademik Q.X. Abdurahmonov [8], Sh.R. Xolmo'minov [12], D. Raximova, O. Abdurahmonov [10], A. Tashpulatov [11] kabi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan yondashuvlar va qarashlarda bevosita aholining ish bilan bandligi sohasida mahalliy boshqaruvin idoralarining faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonini takomillashtirish masalalariga yetarli e'tibor qaratilmagan. Shundan kelib chiqib, mahallalar kesimida aholining ish bilan bandligini tartibga solish masalasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kuzatish, guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik kabi iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etish usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Farg'ona viloyatida aholini bandligi va ishsizlikni kamaytirish maqsadida o'tkazilgan iqtisodiy-statistik tadqiqotlar mehnat bozoridagi keskinlikni kamaytirish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vositasida metodologik jihatdan tatbiq etishning amaliy ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlamoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish tufayli iqtisodiy munosabatlarni innovatsion rivojlantirish va raqamlashtirish mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammosini chuqur, yaxlit to'plam va tizimli ravishda ilmiy o'rganishni talab qiladi. Milliy iqtisodiyotda mehnat resurslari va kadrlarning salohiyatini aniqlash masalasi ishchi kuchining qiymatini baholash muammosini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “«O'ZBEKISTON — 2030» Strategiyasi to'g'risida” gi Farmonida aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ishsizlikni va kambag'allikni keskin qisqartirish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish kabi dolzarb vazifalarni hal etish yo'llari ishlab chiqilgan [1].

Mamlakatimizda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush sifatini yaxshilash, fuqarolarga teng imkoniyat va sharoitlar yaratish borasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda.

Davlat rahbari tomonidan ilk bor 2020-yilda “kambag'allik” tushunchasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Qisqa muddat ichida xalqaro tajribalardan foydalangan holda sohaga oid normativ-huquqiy baza yaratildi.

Xususan, kambag'allikni qisqartirishning metodologik asoslari va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi, Juhon banki va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq 2026-yilga borib, mamlakatimizda kambag'allik darajasini 2 barobarga qisqartirish vazifikasi belgilangan. Kambag'allikni qisqartirishda ishsizlarni daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka o'rgatish asosiy omil hisoblanadi.

Mazkur masalalarni samarali hal etish 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalichlari to'g'risida”gi PF-29-son Farmon [10] va “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-31-son qarori [11] qabul qilindi.

Hududlarda tashkil etilgan ochiq tanlovlardan asosida 17 mingdan ortiq nomzodlar orasidan iqtisodiy va investitsiya komplekslariga kiruvchi tashkilotlar va tajribaga ega faol tadbirkorlar orasidan hokim yordamchilari lavozimiga 9,3 mingdan ortiq malakali mutaxassislar saralab olinib fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib borishi belgilandi.

Hokim yordamchilariga yuklatilgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uchun 2022-yilda 10,5 trln. so'm va 2023-yilda 13,5 trln. so'm miqdorida moliyaviy instrumentlar manbalari shakllantirib berilgan. 2022-yilda Oilaviy tadbirkorlik dasturlari uchun -10 trln. so'm, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasidan -500 mlrd. so'm. 2023-yilda Oilaviy

tadbirkorlik dasturlari uchun –13 trln. so‘m, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasidan –450 mlrd. so‘m.

Yaratib berilgan sharoit va moliyaviy dastaklar qisqa davrda, aholi bilan ijobiy munosabat o‘rnatish imkonini berib, aholini ijtimoiy himoya qilish, ularning bandligini ta‘minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlari natijadorligini oshirdi.

Shuningdek, hokim yordamchilar faoliyatini samarali tashkil etish va baholab borish imkonini beruvchi hamda tegishli vazirlik va idoralar ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan “Onlayn mahalla” platformasi ishga tushirildi.

Mahallalarda aholi bandligi ta‘minlash borasida “mahalla yettiligi” tomonidan quyidagi moliyaviy dastaklar va imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlari tavsiya etiladi:

1. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida kreditlar tegishli tijorat banklari tomonidan qarz oluvchining arizasiga asosan hokim yordamchisining tavsiyanomasi bilan ajratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bunda, tovar va xizmatlar marketpleys tizimi orqali tanlab olinadi hamda mahsulot yetkazib berilgandan so‘ng, hokim yordamchisi tomonidan tuzilgan dalolatnomaga asosan, bank ta‘minotchiga pul o‘tkazib beriladi. Bugungi kunda ushbu jarayon to‘liq raqamlashgan holda amalga oshiriladi. Mazkur mexanizmni samarali joriy etilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlarini va moliyaviy imkoniyatlarini yanada kuchaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

2. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan aholini daromadli mehnat bilan band bo‘lish hamda o‘zini o‘zi band qilish maqsadlari uchun subsidiyalar ajratiladi. Mahalla fuqarolar yig‘ini alohida ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida aholi bandligini ta‘minlashda bevosita o‘z vakolatlari doirasida bir qator imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Xususan, tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ishsiz, shu jumladan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga faoliyatini boshlash uchun kerak bo‘lgan asbob-uskuna, mehnat qurollarini xarid qilish uchun – 7 mln. so‘mgacha, xotin-qizlarga 10 mln. so‘mgacha, yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish uchun – BHMning 30 baravarigacha, sug‘orish vositalari xarid qilish uchun – BHMning 10 baravarigacha, urug‘liklar va ko‘chatlar sotib olish uchun – BHMning 3 baravarigacha miqdorida subsidiya ajratilishi mumkin.

Subsidiya turidan foydalanmoqchi bo‘lgan fuqaro doimiy yashash manzilidagi hokim yordamchisiga “Onlayn mahalla” elektron platformasi orqali murojaat qiladi.

3. Mahallalarda ishsiz aholini, yoshlar va ayollarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan salohiyatli fuqarolarni tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish orqali ularning bandligi ta‘minlanadi. 2024-yil 4-oktyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-347-sonli qaroriga muvofiq Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi «Ishga marhamat» monomarkazlari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari negizida 65 ta kasbiy ko‘nikmalar markazlari tashkil etildi.

Mazkur kasbiy ko‘nikma markazlari fuqarolarni ichki va tashqi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xorijiy tillarga o‘qitish, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo‘lgan fuqarolarni xorijiy ish beruvchilar talabi va xalqaro standartlar asosida kasb-hunarga tayyorlash va chet tillarga o‘qitish, ularni xorijga ketishidan oldin moslashtirish tadbirlarini

amalga oshirish, umuman ishsiz va ish qidirayotgan fuqarolarni kasbga yo'naltirish, maslahatlar berish kabi vazifalar hal etiladi.

4. Aholiga "e-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijara asosida yerlar ajratish tizimidan foydalanish.

Moliyaviy mablag'larni tasarruf etish huquqi "mahalla yettiligi" vakolatiga berilib, kredit bo'yicha tavsiyanoma berish, subsidiya ajratish va daftarlar hisobidan moddiy yordamlar ko'rsatish bo'yicha qarorlar qabul qilish mahalla yettiligining kollegial xulosasi asosida hal etilishi belgilandi. Bu orqali har bir fuqaroning bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash uchun manzilli qaror qabul qilish va mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ta'minlanadi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida ajratilayotgan subsidiya yoki imtiyozli kredit mablag'lari kutilgan natijani bermaslik holatlari ham mavjud. Aniq kasb-hunar yoki malakaviy ko'nikmasi bo'limgan fuqarolarga ajratilayotgan mablag'lari sarflanishidan so'ng natijadorligi yoki faoliyat davomiyligi ta'minlanmasligi nafaqat fuqaroning daromad olish imkoniyati yo'qqa chiqaradi balki mablag'larning maqsadsiz sarflanishiga olib keladi. Ayrim hududlarda subsidiya mablag'lari hisobiga qurilgan issiqxonalarning yaroqsiz holatga kelganligi, ijaraga olingan yer maydonlarida qishloq xo'jaligi ekinlari ekilmasligini kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berish mumkin.

Birinchidan, hududda aholi bandligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida mahallalarda tashkil etilgan "Maslahat markazi" namunaviy Nizomini takomillashtirish, markazning moliyaviy asoslari, mablag' jalb etish va uni sarflash tartibi namunasi ishlab chiqilishi va unda markaz rahbari va qisqa muddatli kurs tashkilotchilarini rag'batlantirib borish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, mahallalarda aholi bandligini ta'minlash ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiyalar ajratilishi, aholining kambag'allikdan chiqishini ta'minlash uchun maqsadli va manzilli qarorlar qabul qilinishida ochiqlik, haqqoniylit, shaffoflikni ta'minlash

Uchinchidan, fuqarolarning bandligini ta'minlash uchun ajratilgan mablag'lar, yer maydonlaridan samarali foydalanishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish

To'rtinchidan, fuqarolarni davlat hisobidan kasbiy ko'nikmalar markazlari orqali kasb-hunarga o'qitishda "dual" tizimni joriy qilish, fuqaro haftanining ma'lum qismida egallayotgan kasbi bo'yicha ishlashi mumkin bo'lgan davlat, xususiy va davlat-xususiy sherikchilik asosida faoliyat olib borayotgan subyektlarda amaliyot o'tashini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Bizningcha, aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini yanada yaxshilash, oila daromadlarini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik, chorvachilik, parrandachilik, shaxsiy tomorqa xo'jaligi bilan shug'ullanish madaniyatini rivojlantirishga ko'maklashishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim hisoblandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'ZBEKISTON -2030" Strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi

- bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-209-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-39-son qarori.
 4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyat. Darslik. – T.: FAN, 2009. B.592.
 5. Rahimova D., Abulqosimov X., Abdurahmonov O., Kattaev K., Ro‘zmetov R. Milliy mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlashni boshqarishni takomillashtirish yo‘nalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B.23
 6. Tashpulatov A. Mintaqada mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish// “Mintaqa aholisni bandligini ta‘minlash va aholi farovonligini yaxshilash: hozirgi ahvoli, muammlari va taraqqiyot strategiyasi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami, Nukus. – 2018-yil, 25-26-aprel.
 7. Xolmo‘minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda uni modellashtirish. Monografiya– T.: KITOBXON. 2023. – B.214.
 8. Shodmonov Sh., Raxmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Zamin nashr», 2021. – 856 b.
 9. <https://www.lex.uz/uz/docs/5758437>
 10. <https://lex.uz/docs/5758155>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 12 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali**
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro’yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).